



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2021- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	838	Izboskan t.	145
Andijon t.	275	Oltinko'l t.	144
Asaka t.	272	Marhamat t.	135
Baliqchi t.	225	Bo'ston t.	127
Shahrixon t.	203	Buloqboshi t.	118
Paxtaobod t.	160	Jalolquduq t.	115
Xo'jaobod t.	150	Xonobod sh.	69
Qo'rg'ontepa t.	149	Ulug'nor t.	63


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 188 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 1 395 taga kamaydi va o'sish sur'ati 69,6 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarda, Andijon (24 ta) tumanida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 608
118,4 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 093
117,2 %

Sanoat

3 288
111,1 %

Qurilish

11 414
124,5 %

Savdo

1 381
110,0 %

Tashish va saqlash

1 927
112,2 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

595
114,4 %

Axborot va aloqa

954
118,2 %

Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8 440
107,0 %

Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 13 085

Asaka t. 3 721

Shahrixon t. 2 691

Andijon t. 2 633

Baliqchi t. 2 006

Qo'rg'ontepa t. 1 990

Oltinko'l t. 1 867

Izboskan t. 1 801

Marhamat t. 1 636

Paxtaobod t. 1 588

Xo'jaobod t. 1 535

Jalolquduq t. 1 511

Buloqboshi t. 1 149

Bo'ston t. 987

Xonobod sh. 768


Ulug'nor t. 732

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (34 272 ta) nisbatan 5 428 taga oshib, o'sish sur'ati 115,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon shahri (1 468 ta), Asaka (504 ta), Andijon (502 ta), Baliqchi (322 ta) va Shahrixon (306 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 2 248 ta, sanoat – 1 335 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 406 taga to'g'ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 75 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2021- yilning
2020- yilga
nisbati2021- yilning
2019- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	801
Andijon t.	265
Asaka t.	257
Baliqchi t.	217
Shahrixon t.	197
Paxtaobod t.	153
Qo'rg'ontepa t.	147
Xo'jaobod t.	145
Oltinko'l t.	141
Izboskan t.	140
Marhamat t.	130
Buloqboshi t.	116
Bo'ston t.	115
Jalolquduq t.	111
Xonobod sh.	68
Ulug'nor t.	59

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Andijon (16 taga) tumanida sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish axborot va aloqa (10 taga) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (8 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 34 708 tasi yoki 87,4 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,9 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (124,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (119,9 foiz) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (118,6 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Andijon (126,3 foiz), Paxtaobod (124,9 foiz), Ulug'nor (124,5 foiz), Oltinko'l (123,0 foiz) va Baliqchi (122,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 959
Asaka t.	3 309
Andijon t.	2 347
Shahrixon t.	2 315
Baliqchi t.	1 698
Qo'rg'ontepa t.	1 658
Oltinko'l t.	1 602
Izboskan t.	1 537
Marhamat t.	1 395
Paxtaobod t.	1 324
Xo'jaobod t.	1 317
Jalolquduq t.	1 223
Buloqboshi t.	961
Bo'ston t.	809
Xonobod sh.	674
Ulug'nor t.	580


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	800	Oltinko'l t.	141
Andijon t.	264	Izboskan t.	139
Asaka t.	257	Marhamat t.	128
Baliqchi t.	217	Buloqboshi t.	116
Shahrixon t.	196	Bo'ston t.	115
Paxtaobod t.	153	Jalolquduq t.	111
Qo'rg'ontepa t.	147	Xonobod sh.	67
Xo'jaobod t.	144	Ulug'nor	59

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  240	Sanoat  854	Qurilish  218
Savdo  1 171	Tashish va saqlash  86	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  129
Axborot va aloqa  75	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish  74	Boshqa turlar  207

Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.


Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo'shib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

2021- yil yanvar–iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'ati 2017- yilning mos davriga nisbatan 197,4 foizga oshgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 898	Marhamat t.	1 390
Asaka t.	3 301	Paxtaobod t.	1 320
Andijon t.	2 336	Xo'jaobod t.	1 312
Shahrixon t.	2 310	Jalolquduq t.	1 220
Baliqchi t.	1 696	Buloqboshi t.	960
Qo'rg'ontepa t.	1 653	Bo'ston t.	806
Oltinko'l t.	1 597	Xonobod sh.	669
Izboskan t.	1 534	Ulug'nor t.	577


2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 5 283 taga ko'paygan va 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sdi va o'sish sur'ati 118,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdoda (124,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (120,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (118,8 foiz) va sanoat (117,3 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Andijon (126,4 foiz), Paxtaobod (125,1 foiz), Ulug'nor (124,6 foiz) va Oltinko'l (123,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

2 425

15

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura


168

Asaka t.	383
Andijon sh.	240
Andijon t.	219
Qo'rg'ontepa t.	212
Izboskan t.	203
Shahrixon t.	202
Paxtaobod t.	190
Baliqchi t.	161
Marhamat t.	135
Oltinko'l t.	130
Ulug'nor t.	121
Jalolquduq t.	117
Bo'ston t.	106
Buloqboshi t.	81
Xo'jaobod t.	77
Xonobod sh.	31


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davriga nisbatan qariyb bir yarim baravar ko'paydi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 406 taga oshgan.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 270
Asaka t.	950
Andijon t.	725
Shahrixon t.	662
Xo'jaobod t.	474
Oltinko'l t.	424
Qo'rg'ontepa t.	362
Baliqchi t.	358
Jalolquduq t.	313
Izboskan t.	308
Marhamat t.	274
Buloqboshi t.	267
Paxtaobod t.	251
Bo'ston t.	198
Xonobod sh.	156
Ulug'nor t.	101



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 172,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,1 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 117,1 %), 1,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 125,4 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 108,3 %) va 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish 118,1 %) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 046
109,2 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

262
112,4 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

980
114,9 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 123,0 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 foizga oshgan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 8,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 29,8 foiz ulushni va 114,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 426
Asaka t.	1 005
Shahrixon t.	760
Baliqchi t.	726
Andijon t.	702
Qo'rg'ontepa t.	642
Oltinko'l t.	635
Izboskan t.	588
Paxtaobod t.	552
Jalolquduq t.	500
Marhamat t.	481
Xo'jaobod t.	445
Buloqboshi t.	314
Bo'ston t.	244
Xonobod sh.	206
Ulug'nor t.	188

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

808
126,6 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 154
128,2 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

7 452
122,8 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 7,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 126,6 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,6 foiz ulushni tashkil etib, 128,2 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 65,3 foiz ulushni tashkil etib, 122,8 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	815
Asaka t.	171
Andijon t.	129
Xonobod sh.	103
Shahrixon t.	94
Qo'rg'ontepa t.	81
Oltinko'l t.	75
Ulug'nor t.	70
Paxtaobod t.	61
Izboskan t.	57
Buloqboshi t.	53
Baliqchi t.	51
Jalolquduq t.	48
Xo'jaobod t.	44
Marhamat t.	41
Bo'ston t.	34

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 135,8 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,9 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	231
Asaka t.	51
Shahrixon t.	46
Baliqchi t.	36
Xo'jaobod t.	35
Qo'rg'ontepa t.	32
Marhamat t.	31
Buloqboshi t.	30
Andijon t.	21
Oltinko'l t.	21
Jalolquduq t.	17
Izboskan t.	14
Paxtaobod t.	13
Xonobod sh.	8
Ulug'nor t.	5
Bo'ston t.	4



Nashriyotchilik faoliyati



Kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,9 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 46,2 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,5 foizga o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 40,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,0 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	349
Asaka t.	83
Shahrixon t.	78
Andijon t.	58
Izboskan t.	53
Baliqchi t.	45
Marhamat t.	44
Qo'rg'ontepa t.	42
Oltinko'l t.	38
Xo'jaobod t.	38
Paxtaobod t.	35
Jalolquduq t.	35
Buloqboshi t.	29
Xonobod sh.	15
Bo'ston t.	7
Ulug'nor t.	5

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

931
118,8 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

16
94,1 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


7
116,7 %

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,6 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,8 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 94,1 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 116,7 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	589
Asaka t.	132
Andijon t.	89
Shahrixon t.	70
Qo'rg'ontepa t.	68
Izboskan t.	52
Oltinko'l t.	52
Baliqchi t.	50
Xo'jaobod t.	47
Marhamat t.	46
Paxtaobod t.	42
Buloqboshi t.	40
Jalolquduq t.	39
Bo'ston t.	36
Ulug'nor t.	15
Xonobod sh.	14

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 030
110,5 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

324
107,3 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25
125,0 %

Havo transporti

2
2,0 marta

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 110,5 foizga, ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 107,3 foizga, pochta va kuryerlik yo'nalishida 125,0 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,0 martaga oshgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	745	Izboskan t.	125
Asaka t.	217	Marhamat t.	121
Andijon t.	217	Qo'rg'ontepa t.	107
Baliqchi t.	196	Buloqboshi t.	105
Shahrixon t.	158	Jalolquduq t.	101
Paxtaobod t.	147	Xonobod sh.	62
Xo'jaobod t.	129	Ulug'nor t.	58
Oltinko'l t.	128	Bo'ston t.	57

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 753
125,8 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

6 640

119,7 %



Sanoat

2 801

113,4 %



Qurilish

8 715

130,1 %



Savdo

1 259

110,8 %



Tashish va saqlash

1 257

115,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

433

128,1 %



Axborot va aloqa

695

123,7 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 645

115,9 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 264

Asaka t. 1 944

Andijon t. 1 820

Shahrixon t. 1 775

Izboskan t. 1 301

Oltinko'l t. 1 224

Baliqchi t. 1 211

Xo'jaobod t. 1 156

Qo'rg'on tepa t. 1 150

Marhamat t. 1 107

Paxtaobod t. 1 062

Jalolquduq t. 1 006

Buloq boshi t. 725



Xonobod sh. 522

Ulug'nor t. 480

Bo'ston t. 451

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 34 708 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 26 198 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o'sish savdo (130,1 foiz), axborot va aloqa (128,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (125,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (123,7 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Paxtaobod (132,9 foiz), Baliqchi (131,5 foiz) Andijon (130,7 foiz) va Ulug'nor (130,4 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**Yillar kesimida soni****Yillar kesimida o'sish sur'ati****Hududlar kesimida**

Andijon sh.	1 659	Oltinko'l t.	203
Asaka t.	804	Jalolquduq t.	166
Baliqchi t.	409	Xo'jaobod t.	133
Shahrixon t.	319	Buloqboshi t.	123
Qo'rg'ontepa t.	307	Izboskan t.	121
Andijon t.	245	Bo'ston t.	97
Marhamat t.	243	Xonobod sh.	82
Paxtaobod t.	207	Ulug'nor t.	55


2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 2,8 foizga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'sish savdoda – 106,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 106,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 101,2 foiz hamda sanoat – 101,2 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa Xo'jaobod (109,9 foiz), Andijon (107,9 foiz), Asaka (105,1 foiz), Shahrixon (104,6 foiz), Jalolquduq (104,4 foiz) va Oltinko'l (104,1 foiz) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	802	Izboskan t.	94
Asaka t.	522	Xonobod sh.	56
Andijon t.	257	Baliqchi t.	50
Bo'ston t.	249	Jalolquduq t.	36
Shahrixon t.	204	Ulug'nor t.	34
Qo'rg'ontepa t.	176	Paxtaobod t.	32
Oltinko'l t.	156	Marhamat t.	26
Buloqboshi t.	95	Xo'jaobod t.	12


2021- yil 1- iyul holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 801 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 94,1 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 118,7 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda tashish va saqlash (144,4 foiz), qurilish (126,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (126,7 foiz) hamda sanoat (123,1 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Jalolquduq (163,6 %), Paxtaobod (145,5 %), Qo'rg'ontepa (138,6 %), Shahrixon (134,2 %) va Izboskan (127,0 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 369 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 113,9 foizga, ya'ni 45 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (141,0 foiz), tashish va saqlash (133,3 foiz), qurilish (114,3 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (111,1 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (157,1 foiz), Jalolquduq (140,0 foiz), Buloqboshi (136,4 foiz), Andijon (128,0 foiz), Oltinko'l (117,6 foiz) tumanlari hamda Andijon (115,6 foiz) shahriga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida

Andijon sh.	148
Andijon t.	32
Shahrixon t.	27
Asaka t.	20
Oltinko'l t.	20
Xonobod sh.	19
Buloqboshi t.	15
Jalolquduq t.	14
Marhamat t.	14
Xo'jaobod t.	14
Qo'rg'ontepa t.	11
Paxtaobod t.	8
Baliqchi t.	7
Bo'ston t.	7
Izboskan t.	7
Ulug'nor t.	6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

 23 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	 204 Sanoat	 24 Qurilish
 55 Savdo	 4 Tashish va saqlash	 10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
 4 Axborot va aloqa	 5 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	 40 Boshqa turlar

2021

2020



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iziston



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 258 tasi qo'shma korxonalar, 111 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

